



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv”
jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamtdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alihanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

JABBAROV Ulug'bek Abdurakhmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – доктор педагогических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович – доктор экономических наук, профессор.

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – доктор педагогических наук, профессор.

Фарфиев Баҳромжон Атҳамдҷановиҷ – доктор социологических наук, доцент.

Ишкуватов Валикул Турдиевич – доктор исторических наук, профессор.

Карамян Мариэтта Хачатуровна – доктор психологических наук, профессор.

Муслимов Нарзулла Алиханович – доктор педагогических наук, профессор.

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – доктор философских наук, профессор.

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – доктор юридических наук, профессор.

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – доктор юридических наук, доцент.

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – доктор философии юридических наук (PhD).

Атамуратов Расулжон Кадиржонович – доктор философии педагогических наук (PhD).

Содикова Шохіда Мархобаевна – доктор социологических наук, профессор.

Умирзаков Баҳодир Ҳамидовиҷ – доктор экономических наук, профессор.

Ибрагимов Лутғулло Зиёдуллаевиҷ – доктор географических наук, доцент.

Жаббаров Улугбек Абдураҳмановиҷ – доктор философии педагогических наук (PhD).

Ходжинев Расулбек Бойназар оғлы – доктор философии (PhD) по философским наукам.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Beginkulov Uzoqboy Shoimkulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukarram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Atamuratov Rasuljon Kadirjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*

Sodikova Shohida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*

Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*

Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*

Khodjiev Rasulbek Boynazar oglı – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

| | |
|---|---|
| Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili | 4 |
|---|---|

JAMIYAT VA OILA

| | |
|--|----|
| Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari..... | 17 |
| Yulchiyeva D. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati | 26 |
| Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish..... | 36 |

IJTIMOIY PEDAGOGIKA

| | |
|--|----|
| Matkarimov A.M. Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari | 46 |
| Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish..... | 53 |
| Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari | 60 |
| Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish..... | 67 |
| Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni..... | 79 |

IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

| | |
|--|-----|
| Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari..... | 89 |
| Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida..... | 94 |
| Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности | 100 |
| Xudoyorova M.X. Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati | 109 |
| Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari | 119 |
| Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari..... | 127 |



Usmonova R.M.,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktaranti*

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR NORASMIY BANDLIGINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy jihatlari sotsiologik tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlar norasmiy bandlikning asosiy xususiyatlari, xotin-qizlar norasmiy bandigini ijobjiy va salbiy jihatlari, sabablari, tadbirlar, mexanizmlar yoritilgan. Yakuniy qismda xulosa va taklif, tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье представлен социологический анализ экономических и правовых аспектов обеспечения неформальной занятости женщин в Узбекистане. Также выделены основные особенности неформальной занятости женщин и девушек, положительные и отрицательные стороны неформальной занятости, причины, меры и механизмы. В заключительной части даются заключение, предложения и рекомендации.

Annotation. This article provides a sociological analysis of the economic and legal aspects of ensuring women's informal employment in Uzbekistan. It also discusses the main features of women's informal employment, its positive and negative aspects, causes, measures, and mechanisms. The final part provides conclusions, suggestions, and recommendations.

Tayanch so'zlar: norasmiy bandlik, xotin-qizlar, iqtisodiy ta'sir, huquqiy himoya, mehnat huquqlari, sotsiologik tahlil, ishsizlik, ish bozori, ish bilan ta'minlash, huquqiy xatarlar, ishchi huquqlari, ish va ta'lif imkoniyatlari, ijtimoiy muammolar.

Ключевые слова: неформальная занятость, женщины, экономическое влияние, правовая защита, трудовые права, социологический анализ, безработица, рынок труда, занятость, юридические риски, права работников, возможности работы и образования, социальные проблемы.

Keywords: informal employment, women, economic impact, legal protection, labor rights, sociological analysis, unemployment, labor market, employment, legal risks, workers' rights, work and education opportunities, social problems.

Kirish. Jahon miqyosida xotin-qizlarning norasmiy bandligi muammosi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda uchraydi. Norasmiy faoliyat, ayniqsa, ushbu guruhga mansub odamlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasining yetishmasligi, mehnat qonunchiligining buzilishi va ish imkoniyatlarining cheklanganligi orqali kuchaygan. Masalan, ko‘plab mamlakatlarda, xususan, Afrika va Lotin Amerikasida, xotin-qizlar ishslashning asosiy soha va shakllarida, asosan, o‘zlarining jismoniy va ma’naviy himoyasini yo‘qotgan holda faoliyat yuritadilar.

O‘zbekistonda ham ushbu muammo salmoqli ahamiyatga ega. Xotin-qizlarning mehnat bozoriga jalb qilinishi bilan bog‘liq muammolar, ishsizlik darajasining yuqoriligi va me’yoriy-huquqiy tizimning yetarli emasligi ushbu masalaga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqotda xotin-qizlarning norasmiy bandligini iqtisodiy va huquqiy jihatdan tadqiq etish, mamlakatda ushbu muammoni hal qilish uchun samarali siyosat va strategiyalar ishlab chiqish muhimdir.

Shu o‘rinda qayd etish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bandlik sohasiga qaratilgan e’tibor o‘laroq, respublikamizda ishsizlik darjasasi so‘ngi olti yilda 9,5 foizdan 8,1 foizga kamayishiga erishilgan. Xususan, “O‘zbekiston–2030”¹ strategiyasida bandlik ko‘lmini oshirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali mehnat bozorining barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu hodisani sotsilogik jihatdan tadqiq etish, uning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish norasmiy ish bilan shug‘ullanadigan xotin-qizlar duch keladigan muammo va omillarni aniqlash va tushunishga xizmat qiladi.

Maqsad va uni asoslash. Respublikamizda xotin-qizlar o‘rtasida norasmiy bandligi iqtisodiy omillari bilan bir qatorda uning sotsiologik jihatdan tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda xotin-qizlarning norasmiy mehnatda ishtirok etishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillarga, iqtisodiy, huquqiy va nazariy o‘lchovlarni o‘rganishga qaratilgan. O‘zbekistonda xotin-qizlarning norasmiy bandligi jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda xotin-qizlar iqtisodiy jihatdan ish bilan ta’minlanmasa, bu bir vaqtning o‘zida ularning ijtimoiy muhofazasi va huquqlariga oid muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday bandlik shakllari xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, oilaviy qadriyatlarni saqlash va gender tengligini ta’minlashda ahamiyat kasb etadi. Jumladan, norasmiy bandlik jamiyatda iqtisodiy faoliyatning

**Xotin-qizlarning
mehnat bozoriga
jalb qilinishi
bilan bog‘liq
muammolar,
ishsizlik
darajasining
yuqoriligi va
me’yoriy-huquqiy
tizimning yetarli
emasligi ushbu
masalaga alohida
e’tibor qaratishni
talab etadi.**

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли Фармони (Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон).

muhim qismi bo‘lib, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq. Norasmiy bandlik – bu rasmiy bo‘lмаган, ya’ni davlat yoki mahalliy hukumat tomonidan ro‘yxatga olinmagan, hujjatlashtirilmagan mehnat faoliyatidir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ayollarning norasmiy bandligi ayollarning rasmiy ro‘yxatga olinmagan, hujjatlashtirilmagan mehnat faoliyatini anglatadi. Norasmiy bandlik ayollarga o‘z iqtisodiy mustaqilligini ta’minalash imkonini berishi mumkin, lekin bu bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga ham bog‘liq. Unga xususiy sektordagi ish, uzoq muddatli shartnomalar, faoliyatning mustaqil shakllari (masalan, savdolar va ijodiy faoliyat), yoshlar va ayollar uchun pardozli, vaqtinchalik yoki asossiz ishlar kiradi.

I-jadval
Xotin-qizlar norasmiy bandligining asosiy xususiyatlari

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olinganlik | Norasmiy bandlikda mehnat munosabatlari rasmiy hujjatlashtirilmaydi, ishchilar ish beruvchi bilan shartnomaga tuzmaydi |
| Ish huquqlari | Norasmiy bandlikda ishchilar o‘zlarining huquqlari, ijtimoiy ta’minti bo‘yicha himoyasiz |
| Ish soati | Norasmiy bandlikda, odatda, ish soatlari belgilanmaydi |
| Tadbirkorlik faoliyati | Norasmiy bandlik ko‘p hollarda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq |
| Moliyaviy jihatlari | Norasmiy bandlikda ishchilar malaka oshirish, ta’lim olish, huquqiy himoya, pensiya va ijtimoy ta’minti tizimidan foydalanish huquqiga ega emas |
| Norasmiy bandlikka oid qonunlar va mexanizmlar yetarli emas | Norasmiy sektordagi ishchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus mexanizmlar talab etiladi |

Xotin-qizlarning norasmiy bandligi masalasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, gender munosabatlari va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar gender tengligini ta’minalash, ayollarning faolligini oshirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tadqiqotlar, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi roli, norasmiy bandlikning ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta’sirini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, ushbu masalada dunyoda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Misol uchun, “Women, Work, and Family in the Middle East and North Africa” (A.Moghadam, 2003) asarida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroti va uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta’siri, shu jumladan, MDH mamlakatlari va Markaziy Osiyo misollari o‘rganilgan. “Women’s Employment and the Family: The Impact of Women’s Economic Participation” (OECD, 2017) hisobotida esa

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar bandligining oilaviy munosabatlar va gender tengligiga ta'siri yoritilgan². Jahon bankining “Gender and Development: Economic and Social Dimensions of Women’s Work” (World Bank, 2019) tadqiqot ishida xotin-qizlar bandligi va uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini ko'rib chiqadi, shu jumladan, qonunchilik va iqtisodiy siyosatlar yoritilgan. Qolaversa, har yili chop etiladigan “Global Gender Gap Report” (World Economic Forum, 2023) hisobotida turli mamlakatlardagi gender tengligi, mehnat bozoridagi xotin-qizlar ishtirokining ko'rsatkichlari, oila va jamiyatga ta'sirini baholash mumkin. “Women’s Employment and Work-Family Conflict: A Cross-National Study” (2021) tadqiqotida xotin-qizlarning bandligi va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat muammolarini turli mamlakatlar misolida ko'rib chiqadi. Shuningdek, “Social Change and Family Dynamics: Women in Transition Economies” (2018) tadqiqot ishi rivojlanayotgan mamlakatlarda xotin-qizlar bandligi va jamiyatdagagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi haqidagi ilmiy tahlillarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mavzu doirasida huquqiy va siyosiy tahlillar berilgan bo'lib, “Labour Market Reforms and Gender Equality in Uzbekistan” (2020), “National Gender Strategy of Uzbekistan” (2021) tadqiqot ishlarida mehnat bozoridagi islohotlar va xotin-qizlar uchun qonunchilik himoyasi hamda mamlakatimizning gender tengligiga oid milliy strategiyasi xotin-qizlar bandligini qo'llab-quvvatlash borasida qanday tadbirlar ko'rileyotgani yoritilgan.

Norasmiy sektorda ishlayotgan shaxslar ijtimoiy ta'minotning ko'plab shakllariga, jumladan, ijtimoiy sug'urta, tibbiy xizmat va pensiya ta'minotiga kirish imkoniyatiga ega emaslar. Statistik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, norasmiy sektor ishtirokchilari ushbu himoya shakllaridan yetkazib bo'lmas zararlar yetishi mumkinligini bilishadi, biroq ular kelajakdagi imkoniyatlardan yetarlicha foydalanmaydilar.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, O'zbekistondagi har 10 ish o'rinlarining deyarli 4 tasi (39%) norasmiy bo'lib, jami iqtisodiy faol aholining 13,7 mln nafaridan 6,5 mlni (47 foiz) rasmiy sektorda mehnat qiladi³. Shu munosabat bilan ijtimoiy va mehnat munosabatlarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlash sharti sifatida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligi jiddiy muammo bo'lib, uning iqtisodiy, huquqiy va sotsiologik jihatlari alohida ahamiyatga ega. Muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv va jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokidagi islohotlar zarur.

**Norasmiy sektorda
ishlayotgan
shaxslar ijtimoiy
ta'minotning
ko'plab
shakllariga,
jumladan, ijtimoiy
sug'urta, tibbiy
xizmat va pensiya
ta'minotiga kirish
imkoniyatiga ega
emaslar.**

² OECD, 2017

³ <https://senat.uz/oz/plenary-sessions/post-807>; <https://daryo.uz/k/2023/06/01/senat-ozbekistonda-norasmiy-bandlikni-qisqartirishga-qaratilgan-qonunni-maqulladi>.

2-jadval

Xotin-qizlar norasmiy bandigining ijobiy va salbiy jihatlari

| Ijobiy | Salbiy |
|---|---|
| Xotin-qizlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyat yaratiladi Ish topish imkoniyatlari kengayadi | Ishchilar ijtimoiy jihatdan himoyalanmaydi Ish sharoitlari kafolatlanmaydi |
| Norasmiy bandlik ayollarga iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy rivojlanish va o‘z faoliyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Iqtisodiyotda oilaviy faol ishtirok etish imkonini paydo bo‘ladi | Mehnat va xavfsizlik talablari yetarli darajada ta’minlanmaydi |
| Uy xo‘jaliklari daromadiga hissa qo‘shadi. Norasmiy ish bilan band bo‘lgan xotin-qizlar, odatda, uy xo‘jaligi, kichik biznes, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan band bo‘ladilar | Huquqiy himoyaning yo‘qligi. Norasmiy bandlikdagi ayollar ko‘pincha korxona yoki hukumat tomonidan himoyalanmaydi |
| | Mehnat sharnomaga ega emas va bu ularni ekspulatatsiyaga qarshi himoyasiz qoldiradi |

Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida norasmiy bandlikni qisqartirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Xususan, 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan norasmiy bandlik ulushini qisqartirish bo‘yicha ishlab chiqilgan Yo‘l xaritasi norasmiy bandlikni tahlil qilish, uni qisqartirishni rag‘batlantirish hamda huquqiy asoslarni takomillashtirish bo‘yicha aniq maqsadlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizda o‘zini o‘zi band qilish instituti joriy etilgani rasmiy sektorda band bo‘lganlar sonini yildan-yilga orttirgan. O‘tgan davr davomida o‘zini o‘zi band qilish mumkin bo‘lgan faoliyat turlari muntazam kengayib borgan. Natijada 1-iyun holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami o‘zini o‘zi band qilganlar soni 1 720 423 nafarga yetdi.

Xotin-qizlar mehnatinining huquqiy himoyasini ta’minalash ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida gender tengligi va ayollarning huquqlarini himoya qilishga oid bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Misol uchun, BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida davlat miqyosida tegishli normalar ishlab chiqilmoqda. Qonunchilikda xotin-qizlarning bandligini rag‘batlantirish va himoya qilishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. O‘zbekistonda xotin-qizlar bandligini ta’minalash va himoya qilish uchun bir qator milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qiligan. Xususan, milliy hujjatlar – “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” ayollarning

huquqlarini kafolatlaydi va gender tengligini ta'minlashga oid normalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va "Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risdagi"gi hamda "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shular sirasidan. Shuningdek, xalqaro hujjatlar – "BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "BMTning Ayollarning huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyalaridagi gender tengligini ta'minlash va ayollarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro qoidalarining amalda qo'llanishi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va gender tengligini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda norasmiy sektor iqtisodiyotda muhim o'rinni tutadi, chunki ko'plab ayollar shaharlarda va qishloq joylarida rasmiy mehnat shartnomasiga ega bo'lmasdan faoliyat yuritadilar. Ular ko'pincha uy mehnati, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi yoki chakana savdo bilan shug'ullanadilar. Bu, avvalo, oilalarga qo'shimcha daromad keltiradi va ishsizlikdan saqlaydi. Ammo norasmiy bandlik ijtimoiy va iqtisodiy xavflarni ham keltirib chiqaradi va ular quyidagilar:

- past daromadlar: xotin-qizlar ko'pincha rasmiy ishchi bo'ladi yoki erkaklar bilan taqqoslaganda ancha kam maosh oladi;

- ijtimoiy kafolatlarning yo'qligi: norasmiy band bo'lgan xotin-qizlar, ijtimoiy sug'urta, pensiya yoki to'lanadigan ta'tillar kabi kafolatlardan mahrum bo'ladi;

- oilaviy daromadga bog'liqlik: qishloq hududlari va kichik shaharlarda ayollar ko'pincha oilaviy xo'jaliklarda ishlaydilar, bu esa ularni erkaklarga iqtisodiy jihatdan bog'lab qo'yadi.

Shuningdek, bu holat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy bandlik ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam bergen bo'lsa-da, u ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Norasmiy tarzda mehnat qiluvchi ayollar o'z malakasini rivojlantirish imkoniga kam ega bo'ladi, bu esa iqtisodiy o'sishni to'xtatib, rasmiy sektor kengayishiga xalaqit beradi.

Xotin-qizlar norasmiy bandligining huquqiy jihatlariga to'xtalib o'tilsa, bu to'laqonli huquqiy himoyaning yo'qligida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, norasmiy bandlikning muhim huquqiy jihatlaridan

*O'zbekistonda
norasmiy sektor
iqtisodiyotda
muhim o'rinni
tutadi, chunki
ko'plab ayollar
shaharlarda va
qishloq joylarida
rasmiy mehnat
shartnomasiga
ega bo'lmasdan
faoliyat yuritadilar.
Ular ko'pincha
uy mehnati,
hunarmandchilik,
qishloq xo'jaligi
yoki chakana
savdo bilan
shug'ullanadilar.*

biri ayollar mehnat huquqlarining rasmiy himoyasi yo‘qligi hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, barcha ishchilar mehnat shartnomalari orqali himoyalanishi lozim, bu ularga quyidagi huquqlarni beradi:

- ijtimoiy ta’minlash (pensiyalar, kasalliklar bo‘yicha nafaqalar va h.k.);
- mehnat imtiyozlari (ta’tillar, onalik nafaqalari va boshqalar);
- ish beruvchi bilan nizolar holatida huquqiy himoya.

Biroq ko‘plab ayollar, ayniqsa, norasmiy iqtisodiy sektor bo‘lganlar, mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmaydilar, bu esa ularni ushbu huquqlardan mahrum qiladi. Bu ularni qiyin ish sharoitlari, past maosh va ekspluatatsiyaga moyil qilib qo‘yadi. Shuningdek, O‘zbekistonda mehnat inspeksiyalari mavjud bo‘lsa-da, ular amalda norasmiy sektorni qamrab olmaydi. Norasmiy ishchilar, ayniqsa ayollar, ishni yo‘qotish yoki huquqiy himoyasizlikdan qo‘rqib, ko‘p hollarda huquqbazarliklar haqida xabar bermaydilar. Huquqiy islohotlar va imkoniyatlar sohasida vaziyatni yaxshilash uchun huquqiy monitoring tizimini kengaytirish va norasmiy bandlikni rasmiylashtirishga yordam beradigan dasturlarni yaratish zarur. Bu uy ishchilarini va kichik bizneslar uchun mehnatni qonuniylashtirishni yengillashtiradigan maxsus qonunlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda ayollar an’anaviy ravishda uy mehnati va bola tarbiyasi bilan shug‘ullangan, erkaklar esa oilada asosiy boquvchi sifatida namoyon bo‘lgan. Shu bois ayollar bolalarga qarash va uy vazifalari tufayli rasmiy ishga joylashish imkoniyatiga kam ega bo‘ladilar. Jamiyat fikri ayollarning kasbdagi o‘sishi yoki moliyaviy mustaqil bo‘lishini qo‘llab-quvvatlamasligi mumkin. Shu bilan birga, ayollar orasida ta’lim darajasining pastligi va kasbiy tayyorgarlik yetishmasligi rasmiy ish topish imkoniyatlarini cheklaydi. Ko‘plab ayollar, ayniqsa qishloq joylarida, sifatlari ta’limga ega emaslar, bu esa ularning malaka va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklaydi.

Ko‘pincha ayollar norasmiy bandlikni o‘z xohishiga ko‘ra tanlamaydi, balki boshqa alternativa yetishmasligi tufayli shunday ishlaydilar. Mahalliy moslashuvlar, jumladan, bolalar bog‘chalari yoki transport infratuzilmasining mavjud emasligi, shuningdek, madaniy normalar ayollarning rasmiy ishga joylashishiga to‘sinqilik qilishi mumkin. Norasmiy sektordagi ayollarning bandligi ko‘pincha ularning ijtimoiy rivojlanishini cheklaydi. Norasmiy ishchi sifatida mehnat qilayotgan ayollar kamroq ijtimoiy faoliyatlarda ishtiroy etadilar, ta’lim va kasbiy dasturlardan foydalanish imkoniga kam ega bo‘ladilar va oila yoki jamiyatdagi qarorlarni qabul qilishda kamroq ta’sirga ega bo‘ladilar. Bunda ayollarning mehnat bozoridagi holatini yaxshilash uchun kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari

***Huquqiy islohotlar
va imkoniyatlar
sohasida vaziyatni
yaxshilash
uchun huquqiy
monitoring tizimini
kengaytirish va
norasmiy bandlikni
rasmiylashtirishga
yordam beradigan
dasturlarni
yaratish zarur. Bu
uy ishchilarini va
kichik bizneslar
uchun mehnatni
qonuniylashtirishni
yengillashtiradigan
maxsus qonunlarni
joriy etishni o‘z
ichiga oladi.***

zarur. Davlat xotin-qizlarni hunarmandchilik, tadbirkorlik, axborot texnologiyalari va boshqa talab yuqori bo‘lgan sohalarga o‘rgatishga qaratilgan tashabbuslarni rivojlantirishi mumkin. Norasmiy mehnatni qonuniylashtirish mexanizmlarini yaratish, masalan, kichik bizneslar va uy mehnatchilari uchun soddallashtirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini joriy etish ayollarning iqtisodiy holatini yaxshilaydi. Bu ularga ijtimoiy kafolatlar olish va huquqlarini himoya qilish imkonini beradi. Davlat qo‘llab-quvvatlovi, masalan, arzon bolalar bog‘chalari, qulay ish grafiklari, oilalar uchun subsidiya dasturlari ayollarga ish va oila majburiyatlarini uyg‘unlashtirishni yengillashtirib, ularning rasmiy sektorga o‘tishiga yordam beradi.

Xotin-qizlarning rasmiy bandligini ta’minlash uchun mehnat qonunchiligi va mehnat munosabatlarini yaxshilash zarur. Bunda qonunchilik doirasida aniq choralar ko‘rish va norasmiy band bo‘lganlarni mehnat huquqlari bilan ta’minlash kerak. Xotin-qizlar uchun ta’lim dasturlarini yaxshilash, ularning kasbiy malakalarini oshirish va malaka oshirish imkoniyatlarini ko‘paytirish lozim. O‘zbekistonda xotin-qizlarning norasmiy bandligi ba‘zan ularning huquqlarini to‘laqonli qo‘riqlash va himoyalash imkonini bermaydi. Ularning mehnat shartlari, daromadlari va ijtimoiy himoyasida tizimli muammolarga duch kelishi kuzatiladi. Ta’kidlash joizki, ushbu sohada normativ huquqiy kamchiliklar, xususan mehnat tekshiruvlari ko‘pincha norasmiy sektorlarni e’tiborsiz qoldirishi sababli xotin-qizlarning huquqiy kafolatlari ta’minlanmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, ro‘yxatga olinmagan mehnat, ijtimoiy himoyaning yetishmovchiligi tufayli norasmiy bandlikda ishlagan ayollar o‘zlarining ijtimoiy huquqlari va ta’mintolaridan mahrum bo‘ladilar. Ular pensiya, ta’mir, yordam va boshqa ijtimoiy ta’mintadan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Norasmiy bandlikda ayollar ish sharoitlari yetarli darajada muhofaza qilinmaydi. Xotin-qizlar norasmiy bandlikda ko‘pincha kichik bizneslar ochish va ularni boshqarish imkoniyatiga ega. Bu ularga oilaviy daromad olish va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlashga yordam beradi. Bugun O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida hukumat tomonidan qator choralar ko‘rilmogda. Ular orasida kichik biznesni rivojlantirish, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha loyihalar mavjud. Iqtisodiy rivojlanish uchun norasmiy bandlikning ahamiyati shundaki, bu xotin-qizlarga uyda o‘tirib, oilaviy sharoitda daromad olish imkonini beradi. Uy mehnati orqali daromad olish, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyotining darajasi va uning salohiyat imkoniyatlari ko‘p jihatdan xotin-qizlarning mavqeyi bilan belgilanadi. Xotin-qizlarning maqomi jamiyat taraqqiyoti, jamiyatda

*Xotin-qizlarning
rasmiy bandligini
ta’minlash
uchun mehnat
qonunchiligi
va mehnat
munosabatlarini
yaxshilash zarur.
Bunda qonunchilik
doirasida aniq
choralar ko‘rish
va norasmiy band
bo‘lganlarni
mehnat huquqlari
bilan ta’minlash
kerak. Xotin-
qizlar uchun
ta’lim dasturlarini
yaxshilash,
ularning kasbiy
malakalarini
oshirish va
malaka oshirish
imkoniyatlarini
ko‘paytirish lozim.*

shakllangan muhit va kelajakda jamiyat qanday taraqqiy qilishining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ularning huquqiy va ijtimoiy himoyalanganlik darajasi, ta’lim va bandlik, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki darajasi ularning jamiyatdagi mavqeysi va rolining asosiy ijtimoiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekiston hukumati xotin-qizlar bandligini ta’minalash iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, norasmiy bandlikni qisqartirish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etmoqda. Bunday bandlik faoliyatni, odatda, rasmiy hisobotlarda ko‘rsatilmaydi, lekin u iqtisodiy faoliyatning yirik qismi bo‘lib, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minalashga yordam beradi. Shu bilan birga qayd etish lozimki, norasmiy bandlik xotin-qizlarga moliyaviy mustaqillikni ta’minalashga yordam berib, ularning daromadini oshirishga va ijtimoiy holatini yaxshilashga olib keladi. Xotin-qizlarning norasmiy bandligini ta’minalash ijtimoiy rivojlanishni, gender tenglikni va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Norasmiy sektordagi faoliyatlar, masalan, xotin-qizlar uchun kichik bizneslar, ijtimoiy yordam vositalari orqali ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. Norasmiy bandlik xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshiradi, bu esa jamiyatning umumiyligi iqtisodiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli xotin-qizlar bandligini yaxshilash uchun maxsus siyosiy qarorlar va dasturlar talab etiladi. Albatta, bu mexanizmlar, avallambor, xotin-qizlarning bandligini rasmiylashtirishga, ularga ijtimoiy himoyani ta’minalashga yo‘naltirilishi zarur.

Shu bilan birga, xotin-qizlar norasmiy bandligining ijtimoiy oqibatlari bu ularning oilalar va jamiyatga ta’siri bilan bog‘liq. Xususan, O‘zbekistonda ayollarning norasmiy bandligi oilaviy qadriyatlari va iqtisodiy tuzilmalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu moliyaviy jihatdan oilasiga yordam berishi bilan birga, oilaviy munosabatlarning buzilishi, farzandlar ta’lim-tarbiya amaliyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Xotin-qizlarning yetarli ta’lim olmasligi ko‘pincha ularning norasmiy sektorlarga yo‘naltirilishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni sifatli ta’lim va kasb-hunar ta’limi imkoniyatlarining cheklanganligi ayollarning rasmiy ish bilan ta’minalishiga to‘sqinlik qiladi va norasmiy mehnat bilan shug‘ullanishiga shart-sharoit yaratadi. Ta’kidlanganidek, ayollarning norasmiy bandligi ularning moliyaviy o‘ziga ishonishiga sezilarli hissa qo‘shadi, ammo ularning huquqiy va ijtimoiy ta’minoti haqida tashvish tug‘diradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tadqiqot norasmiy ishchilarni himoya qilish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirishni va kichik tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan ro‘yxatga olish tizimlarini taklif qilishni nazarda tutadi, jumaladan:

- huquqiy himoyani kuchaytirish, mehnat huquqlarini mustahkamlash va norasmiy ish tarmoqlarini rasmiylashtirish;
- mamlakatda ishchilarning huquqiy himoyasini ta'minlash bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish;
- ijtimoiy ta'minotni kengaytirish, norasmiy ishchilarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan, pensiya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish;
- mikrokreditlar, kasb-hunar ta'limi va murabbiylik dasturlari orqali ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish norasmiy mehnatni yanada tuzilgan va xavfsiz imkoniyatlarga o'tkazish;
- soddalashtirilgan soliq tizimlari va kichik biznesni rag'batlantirish kabi boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli strategiyalarini qabul qilish xotin-qizlar uchun iqtisodiy inkluyuzivlikni kuchaytirish.

O'zbekistonda xotin-qizlarning norasmiy bandligini ta'minlashning iqtisodiy, huquqiy va nazariy jihatlari jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va gender tengligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi ishlarni davom ettirish va ayollarning bandligini rag'batlantirish uchun samarali mexanizmlarni joriy etish zarur. Xotin-qizlarning norasmiy bandligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiyadolat uchun muhimdir. Bu sohaga ta'sir qiluvchi faktorlarni aniqlash, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish, xotin-qizlarning norasmiy faoliyatini rag'batlantirish jamiyatning barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yordam beradi.

3-jadval

| Sabablari | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmlari |
|--|------------------------------------|---|
| Xotin-qizlarning norasmiy bandligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning yetarli emasligi | Mehnat kodeksini takomillashtirish | Norasmiy bandlikni tizimli ravishda o'rganish va mexanizmlarni yaratish uchun milliy mehnat kodeksini qayta ko'rib chiqish |
| Norasmiy bandlikka jalb etilgan ayollarning ko'pchiligi malaka va ta'limiga ega emas | Ta'lim va hunar o'rgatish | Xotin-qizlar norasmiy sektorda faoliyat yuritish uchun kasb va xunarlarni o'rgatish dasturlarini joriy etish |
| | Ijtimoiy muhitni yaxshilash | Norasmiy bandlik sohasida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. |

Xotin-qizlar norasmiy bandligiga sotsiologik yondashuv jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan mavjud an'anaviy fikrlar va gender stereotiplari xotin-qizlarning norasmiy sektorda band bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayollar an'anaviy ravishda uy vazifalari, bola parvarishi

*Ko‘plab qishloq
hududlarida
ayollar ta’lim
olishda erkaklarga
nisbatan kam
imkoniyatlarga
ega bo‘ladilar.
Bu ularning
rasmiy mehnat
bozorida ish topish
imkoniyatini
cheeklaydi.
Ayollar uchun
malaka oshirish
imkoniyatlari
kamligi ham
norasmiy bandlikni
kuchaytiruvchi
omillardan biridir.*

va uy-ro‘zg‘or ishlari bilan bog‘liq rollarga ega bo‘lib, mehnat bozorida to‘liq ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarida yoki patriarchal qadriyatlarga ega bo‘lgan oilalarda yanada kuchli namoyon bo‘ladi. Bu stereotiplar ayollarning rasmiy ish topish imkoniyatini cheeklaydi va ularni norasmiy sektorga kirishga majbur qiladi. Masalan, ko‘plab ayollar uydagi mas’uliyatlarni va ish vaqtini bir-biriga moslashtirish maqsadida uy mehnati yoki oilaviy xo‘jalikda ishlashni tanlaydilar. Bundan tashqari, jamiyatdagi ba’zi fikrlar ayollarning ishlashini yoki mustaqil bo‘lishini kam qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa ularning iqtisodiy faolligini cheeklaydi. Ta’lim darajasi va kasbiy tayyorgarlikning pastligi ham ayollarning norasmiy sektorda ishslashini kuchaytiradi. Ko‘plab qishloq hududlarida ayollar ta’lim olishda erkaklarga nisbatan kam imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bu ularning rasmiy mehnat bozorida ish topish imkoniyatini cheeklaydi. Ayollar uchun malaka oshirish imkoniyatlari kamligi ham norasmiy bandlikni kuchaytiruvchi omillardan biridir. Ta’limsiz va malakasiz ayollar ish topishda qiyinchiliklarga duch keladilar va shuning uchun rasmiy bo‘lmagan mehnat turlariga yoki vaqtincha ish joylariga murojaat qiladilar. Bu kabi norasmiy bandlik ayollarning jamiyatdagi roli va mavqeyiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Rasmiy bo‘lmagan ish faoliyati jamiyatda kam tan olinadi va ayollarning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatini past ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda norasmiy ishchi sifatida mehnat qiluvchi ayollar jamiyatdagi faol qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok eta olmaydilar, chunki ularning ijtimoiy o‘rni kambag‘allik va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu holat ayollarning ijtimoiy ta’sirini pasaytiradi va ularni tengsizlikka duchor qiladi. Xotin-qizlar uchun norasmiy sektorda ishslashning ijtimoiy oqibatlari salbiy bo‘lishi mumkin. Ish shartlarining noqulayligi, ijtimoiy kafolatlar yo‘qligi va maoshning pastligi ayollarning turmush sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, norasmiy bandlikdagi ayollar nafaqa, sog‘liqni saqlash yoki mehnat himoyasiga ega bo‘lmaydilar, bu ularning ijtimoiy himoyasizligiga olib keladi. Norasmiy sektorda ishlayotgan ayollar ko‘pincha oila va mahalliy jamoalar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi. Ayollar bir-birini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro yordam guruhlari orqali o‘zlarining iqtisodiy ahvollarini yaxshilashga harakat qiladilar. Misol uchun, qishloq joylaridagi ko‘plab ayollar o‘zaro yordamga asoslangan hunarmandchilik yoki qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanadilar. Bu ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, ammo iqtisodiy jihatdan rasmiy bo‘lmagan mehnat shaklilihicha qoladi.

Xotin-qizlar, ko‘pincha, qishloq hududlarida, norasmiy iqtisodiyotda ishlaydilar, ular uy mehnati, xizmat ko‘rsatish sohalarida yoki

dehqonchilikda band bo‘ladi. Xotin-qizlar rasmiy mehnat shartnomalariga ega bo‘limganligi tufayli ular mehnat huquqlaridan to‘la foydalana olmaydilar va ish beruvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydilar. Norasmiy bandlik ko‘p hollarda iqtisodiy jihatdan qimmatli resurs hisoblanadi, chunki u ishsizlikning oldini oladi. Shunga qaramay, bunday mehnatga to‘lanadigan maosh past bo‘lishi va ishchilarga ijtimoiy kafolatlar berilmasligi ko‘pchilikni nochor holatga tushiradi. Norasmiy sektor iqtisodiyotning salmoqli qismi bo‘lib, uning salbiy jihatlari ortida ishlab chiqarishning past darajasi, moliyaviy barqarorlikning yetishmasligi va huquqiy kafolatlarsiz faoliyat yuritish holatlari yotadi. Xotin-qizlarning mehnat huquqlari O‘zbekiston qonunchiligidagi himoyalangan bo‘lsa-da, norasmiy sektorda ishlaydiganlar ko‘p hollarda bunday huquqlardan mahrum bo‘ladi. Ularning mehnat munosabatlari ko‘pincha qonuniy asosda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan. O‘zbekiston Mehnat kodeksi va tegishli qonunlarda rasmiy ishga joylashish mexanizmlari nazarda tutilgan, lekin norasmiy band bo‘lganlar uchun amaldagi qonunchilikning samarali ishlamayotganligi bu muammoni murakkablashtiradi. O‘zbekistondagi an’naviy va gender normalari ko‘p hollarda xotin-qizlarning uy mehnati bilan cheklanishiga olib keladi, bu esa ularning norasmiy bandligiga hissa qo‘sadi. Xotin-qizlar jamiyatda ko‘proq uy vazifalari bajaruvchisi sifatida ko‘riladi, bu esa ularning mehnat bozoridagi faoliyatini cheklaydi. Xotin-qizlarning ta’lim darajasi past yoki ma’lumotga ega bo‘lmasliklari ham ularning norasmiy iqtisodiyotda ishlashiga sabab bo‘ladi. Ular rasmiy sektorda ish topishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Yakuniy qism. O‘zbekistonda xotin-qizlarning norasmiy bandligini ta’minalashning sohadagi ishlarni davom ettirish va ayollarning bandligini rag‘batlantirish uchun samarali mexanizmlarni joriy etish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

1. Ish imkoniyatlarini kengaytirish. Xotin-qizlar uchun ish bozorini kengaytirish va ularning ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilash kerak. Jumladan, kichik va o‘rtacha biznesni rivojlantirish orqali xotin-qizlarning ishga jalb qilinishini rag‘batlantirish.

2. Sotsiologik tadqiqotlarni kuchaytirish. Xotin-qizlarning mehnat sharoitlari va ularning norasmiy bandligini aniqlash uchun yangi sotsiologik tadqiqotlar olib borish zarur. Bu tadqiqotlar muammolarning o‘z vaqtida aniqlanishi va yechimlar ishlab chiqilishiga yordam beradi.

3. Mehnatni muhofaza qilish tizimini yaxshilash. Norasmiy ishchilar uchun huquqiy himoyani kuchaytirish, ishchilarning ta’moti va shart-sharoitlarini nazorat qilish, ularni ijtimoiy foyda va nafaqa to‘lovlar bilan rag‘batlantirish.

*O‘zbekistondagi
an’naviy va
gender normalari
ko‘p hollarda
xotin-qizlarning
uy mehnati bilan
cheklanishiga
olib keladi, bu esa
ularning norasmiy
bandligiga
hissa qo‘sadi.
Xotin-qizlar
jamiyatda ko‘proq
uy vazifalari
bajaruvchisi
sifatida ko‘riladi,
bu esa ularning
mehnat bozoridagi
faoliyatini
cheklaydi.*

4. Ta'lim va malaka oshirish dasturlari. Xotin-qizlarning kasbiy mahoratlarini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, bu orqali ularning ish bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт дарслиги. – Тошкент: FAN, 2019. – 592 б.
2. Абдураҳмонов Қ.Х. Инсон тараққиёти: дарслик. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 476 б.
3. Кузнецов Ю.И. Построение информативного базиса в задачах общей циркуляции атмосферы: дис. ...канд. физ.-мат. наук. – Новосибирск: ВЦ СО РАН, 1997. – 134 б.
4. Фролов В.В. Теоретические проблемы правового регулирования специальных экономических зон: автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Москва: МГУ, 1997. – 22 б.
5. Бахвалов Н.С. К оптимизации методов решения краевых задач при наличии пограничного слоя // Ж. вычисл. матем. и матем. физ. – 1969. – № 4 (9). – С. 841-859.
6. Интеллектуальное общение с ЭВМ: Сб. науч. тр. ТашГУ. – Ташкент, 1986. – 270 с.
7. Петров С.М. Влияние конечной скорости распространения поперечной волны на динамическое поведение высокого сооружения //IV Российская конференция по сейсмостойкому строительству: тез. докл. – Москва, 2001. – 55 с.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, Олмазор тумани, Чимбай кўчаси, 8-уй.